



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDIT LARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмурадовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODEL ASOSIDA HISOBGA OLISH METODIKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLISH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING OPTIMAL MODEL VA FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI	222
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH.....	229
G'ayimov Abdumalik Norbekovich	
DAVLAT XARIDLARI AUDITIDA MUHIMLIKNI (MATERIALLIKNI) ANIQLASH USLUBI.....	235
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIDA MUHIMLILIK VA RISK DARAJALARINI ANIQLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH: BIG DATA VA MASHINAVIY O'RGANISHGA ASOSLANGAN IT-AUDIT PLATFORMASI KONSEPSIYASI.....	241
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
ICHKI AUDITNING GLOBAL STANDARTLARI TALABLARINI TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	249
Ismailov Azizbek Madaminovich	
AHOLI REAL DAROMADLARINI OSHIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	258
Toshtemirov Shohruh Toshpo'latovich	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA SUG'URTA ISHINI YURITISH XARAJATLARI: TAHLIL VA ANALITIK HISOBNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	265
Murodov Habibullo Qodir o'g'li	



SUG'URTA TASHKILOTLARIDA SUG'URTA ISHINI YURITISH XARAJATLARI: TAHLIL VA ANALITIK HISOBNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Murodov Habibullo Qodir o'g'li

“IMKON-SUG'URTA” AJ bosh buxgalter o'rinbosari

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Buxgalteriya hisobi va audit
kafedrası mustaqil izlanuvchisi**

ORCID: 0009-0006-8523-0578

E-mail: xabibmurodov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada sug'urta tashkilotlarida sug'urta ishini yuritish xarajatlarini hisobga olish va tahlil qilish masalalari “IMKON-SUG'URTA” AJ misolida tadqiq etilgan. Jamiyatning 2021–2025-yillardagi sof tushumi, xizmatlar tannarxi, yalpi natijasi, xarajat sig'imi va yalpi marjasi tahlil qilingan. 2010 – «Sug'urta ishini yuritish xarajatlari» schyoti debet aylanmasidagi summalar iqtisodiy mazmuniga ko'ra sug'urta majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq summalar hamda tashkiliy-operatsion xarajatlarga ajratilgan. Tashkiliy-operatsion xarajatlarni sug'urta klassi, sug'urta turi yoki mahsuloti, shartnoma, xarajat turi, xarajat markazi va mas'uliyat markazi bo'yicha detallashtirishga asoslangan analitik hisob modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta tashkiloti, sug'urta xarajatlari, xizmatlar tannarxi, sof tushum, xarajat sig'imi, yalpi marja, 2010-schyot, analitik hisob, xarajat markazi, mas'uliyat markazi.

Аннотация. В статье исследованы вопросы бухгалтерского учета и анализа расходов на ведение страховой деятельности на примере АО «ИМКОН-SUG'URTA». Проведен анализ чистой выручки, себестоимости страховых услуг, валового финансового результата, коэффициента затрат и валовой маржи общества за 2021–2025 годы. Суммы дебетового оборота счета 2010 «Расходы на ведение страховой деятельности» классифицированы по экономическому содержанию на расходы, связанные с исполнением страховых обязательств, и организационно-операционные расходы. Предложена модель аналитического учета, основанная на детализации организационно-операционных расходов по классу страхования, виду (продукту) страхования, договору, виду расходов, центру затрат и центру ответственности.

Ключевые слова: страховая организация, страховые расходы, себестоимость услуг, чистая выручка, коэффициент затрат, валовая маржа, счет 2010, аналитический учет, центр затрат, центр ответственности.

Abstract. This article examines the accounting and analysis of insurance operating expenses using the example of IMKON-SUG'URTA JSC. The company's net revenue, cost of insurance services, gross financial result, cost ratio, and gross margin for 2021–2025 are analyzed. The debit turnover of Account 2010, «Insurance Operating Expenses,» is classified according to its economic substance into expenses related to the fulfillment of insurance obligations and organizational and operational expenses. An analytical accounting model is proposed that provides detailed classification of organizational and operational expenses by insurance class, insurance type (product), contract, expense category, cost center, and responsibility center.

Keywords: insurance company, insurance operating expenses, cost of services, net revenue, cost ratio, gross margin, Account 2010, analytical accounting, cost center, responsibility center.

KIRISH

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi, to'lov qobiliyati va raqobatbardoshligi ularning sug'urta shartnomalari bo'yicha qabul qilgan majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi bilan bir qatorda, sug'urta xizmatlarini ko'rsatish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlarni to'g'ri hisobga olish, tahlil qilish va nazorat qilish samaradorligiga ham bevosita bog'liq. Sug'urta faoliyatining o'ziga xosligi shundaki, sug'urtalovchi



sug'urta mukofotlarini shartnoma amal qilishining dastlabki bosqichida qabul qilishi mumkin, biroq sug'urta hodisalarning sodir bo'lish vaqti, takrorlanish darajasi hamda ular natijasida yuzaga keladigan majburiyatlarning yakuniy miqdori oldindan to'liq aniq bo'lmaydi. Mazkur holat sug'urta tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni tan olish, sug'urta xizmatlari tannarxini shakllantirish hamda moliyaviy natijalarni aniqlashda alohida uslubiy yondashuvlarni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonunida sug'urta va qayta sug'urta faoliyatini amalga oshirish, sug'urta shartnomalarini tuzish va bajarish, sug'urta bozori professional ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari hamda sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning huquqiy asoslari belgilangan [1]. Sug'urta shartnomalarini tuzish, sug'urta tavakkalchiliklarini baholash, sug'urta mukofotlarini hisoblash, shartnomalarga xizmat ko'rsatish, sug'urta da'volarini ko'rib chiqish va sug'urta to'lovlarini amalga oshirish jarayonlari mehnat, moddiy, moliyaviy va axborot resurslarining sarflanishi bilan bog'liq. Shu sababli mazkur jarayonlarda shakllanadigan xarajatlarning iqtisodiy mazmunini to'g'ri belgilash va ularni tegishli hisob obyektlariga birlashtirish sug'urta tashkilotlari buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Sug'urtalovchilarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobining maxsus schyotlar rejasiga muvofiq, sug'urtalovchining asosiy faoliyati bo'yicha xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar 2010 — «Sug'urta ishini yuritish xarajatlari» schyotida umumlashtiriladi [2]. Ushbu schyot debetida sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bilan bevosita bog'liq to'g'ridan to'g'ri xarajatlar, yordamchi faoliyat xarajatlari, asosiy faoliyatni boshqarish va unga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bilvosita xarajatlar hamda hisobot davri oxirida boshqa maxsus schyotlardan o'tkaziladigan summalar aks ettiriladi.

Amaldagi hisob tartibi sug'urta xizmatlarining umumiy tannarxini shakllantirish imkonini bersa-da, 2010-schyot tarkibida iqtisodiy mazmuni, yuzaga kelish sababi va boshqaruvdagi vazifasi jihatidan bir-biridan farq qiluvchi obyektlar jamlanishi mumkin. Xususan, sug'urta to'lovlari va foydalanilmagan sug'urta mukofotlari sug'urtalovchining sug'urta shartnomalari bo'yicha majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lsa, agentlik va komission xizmatlar, mehnat haqi, ijtimoiy soliq, bank xizmatlari, elektron polis, axborot-texnik ta'minot, ijara, amortizatsiya, transport va material xarajatlari sug'urta ishini tashkiliy-operatsion jihatdan yuritishni ta'minlaydi.

Iqtisodiy mazmuni turlicha bo'lgan ushbu summalarining bitta sintetik schyotda umumlashtirilishi moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun yetarli bo'lishi mumkin. Biroq bunday umumlashtirish sug'urta xizmatlarining haqiqiy tannarxini sug'urta klasslari, sug'urta mahsulotlari, shartnomalar, filiallar, xarajatlarning yuzaga kelish joylari va mas'uliyat markazlari bo'yicha aniqlash imkoniyatini cheklaydi. Natijada alohida sug'urta yo'nalishlarining xarajat sig'imi va rentabelligini baholash, xarajatlarning belgilangan ko'rsatkichlardan og'ishini aniqlash hamda ichki nazorat va audit uchun zarur detallashtirilgan axborotni shakllantirish murakkablashadi.

Moliyaviy hisobotning 17-son xalqaro standartida sug'urta shartnomalarini sotish, andarrayting qilish va tegishli sug'urta shartnomalari guruhini shakllantirish bilan bog'liq pul oqimlari sug'urta shartnomalarini tuzish bilan bog'liq pul oqimlari sifatida qaraladi. Standart bunday pul oqimlarini sug'urta shartnomalari portfellari va guruhlar o'rtasida tizimli hamda oqilona asosda taqsimlashni, shuningdek, sug'urta shartnomalarini bajarishga bevosita tegishli doimiy va o'zgaruvchan ustama xarajatlarni tegishli shartnomalar guruhlariga olib borishni nazarda tutadi [3].

IFRS 17da belgilangan yondashuvlar O'zbekistonda amal qilayotgan milliy schyotlar rejasini almashtiruvchi qoida hisoblanmaydi. Biroq ular xarajatlarning sug'urta shartnomalari va xizmatlari bilan bog'liqligini aniqlash, bevosita va bilvosita xarajatlarni chegaralash hamda bilvosita xarajatlarni iqtisodiy asoslangan taqsimlash bazalari orqali tegishli hisob obyektlariga olib borishda muhim uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urta tashkilotlari xarajatlarini tahlil qilishda faqat ularning mutlaq miqdori yoki o'sish sur'atlarini aniqlash yetarli emas. Sug'urta xizmatlaridan olingan sof tushum, ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi, yalpi moliyaviy natija, xarajat sig'imi va yalpi marja ko'rsatkichlarini o'zaro bog'liqlikda baholash sug'urta operatsiyalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, 2010-schyot debet aylanmasining tarkibiy tahlili xarajatlar o'sishining asosiy manbalarini, umumiy tannarxda yuqori ulushga ega moddalarni hamda analitik hisobni chuqurlashtirish zarur bo'lgan yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

«IMKON-SUG'URTA» AJning 2021–2025-yillardagi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlari tahlili sug'urta xizmatlari tannarxi mazkur davrda sof tushumdan yuqori shakllanganini ko'rsatdi. Shuningdek, 2021 va 2025-yillar uchun 2010-schyot aylanma-saldo vedomostlarini o'rganish natijasida schyot debet aylanmasida iqtisodiy mazmuni turlicha bo'lgan sug'urta majburiyatlariga oid summalar va tashkiliy-operatsion xarajatlar birgalikda aks ettirilayotgani aniqlandi. Mazkur holat 2010-schyot ma'lumotlarini dastlab iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlash, keyin esa sug'urta ishini yuritishning tashkiliy-operatsion xarajatlarini ko'p bosqichli analitik kesimlar bo'yicha hisobga olish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi «IMKON-SUG'URTA» AJ misolida sug'urta xizmatlaridan olingan sof tushum va xizmatlar tannarxi dinamikasini, 2010 — «Sug'urta ishini yuritish xarajatlari» schyoti debet aylanmasining tarkibi va o'zgarishini tahlil qilish hamda sug'urta ishini yuritishning tashkiliy-operatsion xarajatlari analitik hisobini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, daromad va xarajatlarni tan olish, sug'urta xizmatlari tannarxini shakllantirish, moliyaviy natijalarni aniqlash hamda hisob ma'lumotlaridan boshqaruv va nazorat maqsadlarida foydalanish masalalari mahalliy, MDH va uzoq xorij olimlari tomonidan turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan.

O'zbekistonda sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil metodologiyasi I.K. Ochilov tomonidan kompleks o'rganilgan. Muallif hisob siyosati, sintetik va analitik hisob registrlarining o'zaro bog'liqligi, sug'urta shartnomalari bo'yicha daromad va xarajatlarni tan olish, moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ishonchligi hamda sug'urta operatsiyalarini tahlil qilish masalalarini tadqiq etgan. Shuningdek, sug'urta da'volarini yuritish bilan bog'liq xarajatlarni umumiy sug'urta ishini yuritish xarajatlaridan ajratish va ishchi schyotlar tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan [4].

D.A. Kuvatova sug'urta tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni hisobini takomillashtirish, xarajatlarni funksional xususiyatlariga ko'ra guruhlash, sug'urta mahsulotlari tannarxi va moliyaviy natijalarni ishonchli aniqlash hamda sug'urta zaxiralarini joylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni alohida hisobga olish masalalarini o'rgangan [5]. M.Sh. Ergasheva esa sug'urta shartnomalari bo'yicha daromad va xarajatlarni tan olish, qayta sug'urta va birgalikda sug'urta operatsiyalarini hisobga olish hamda moliyaviy natijalarni funksional biznes jarayonlari kesimida shakllantirish masalalariga e'tibor qaratgan [6].

M.A. Abduraimova sug'urta tashkilotlarida auditorlik dalillarining ishonchligi, buxgalteriya va axborot tizimi ma'lumotlaridan audit jarayonida foydalanish hamda ichki nazorat tizimini baholash masalalarini yoritgan [7]. Mazkur tadqiqotlar analitik hisob ma'lumotlarining nafaqat moliyaviy hisobot, balki boshqaruv va audit uchun ham muhim axborot manbai ekanini ko'rsatadi.

MDH olimlaridan T.V. Polaznova sug'urta operatsiyalari bo'yicha daromad va xarajatlarni tan olish, sug'urta to'lovlari va sug'urta ishini yuritish xarajatlari hisobini takomillashtirish hamda bilvosita xarajatlarni moliyaviy mas'uliyat markazlari bo'yicha taqsimlash masalalarini tadqiq etgan [8]. M.K. Yakovlev sug'urta shartnomasi va sug'urta operatsiyalarini buxgalteriya hisobi obyektlari sifatida tavsiflab, sug'urta mukofotlari, sug'urta to'lovlari, sug'urta zaxiralari, qayta sug'urta operatsiyalari va moliyaviy natijalar hisobini tashkil etishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan [9].

V.P. Shegurova sug'urta biznesida daromadlar va xarajatlarning tarkibi, ularning moliyaviy natijaga ta'siri hamda sug'urta faoliyati samaradorligini maxsus ko'rsatkichlar asosida baholash masalalarini o'rgangan [10]. J.M. Korzovatykh sug'urta xizmatining nomoddiy xususiyati, sug'urta mukofotini olish va majburiyatlarni bajarish vaqtlarining mos kelmasligi, sug'urta zaxiralarini shakllantirish hamda noaniqlik sharoitida hisobni tashkil etish muammolarini yoritgan [11].

O.V. Savelyeva sug'urta mukofotlari, sug'urta to'lovlari, komission haqlar, qayta sug'urta operatsiyalari va sug'urta zaxiralarini hisobga olish xususiyatlarini tadqiq etib, sintetik hisob ma'lumotlarini analitik schyotlar orqali detallashtirish zarurligini ko'rsatgan [12]. G.B. Usmanaliyeva sug'urta tashkilotlari daromadlari va xarajatlarini iqtisodiy elementlar, sug'urta operatsiyalari turlari va faoliyat yo'nalishlari bo'yicha tasniflash masalalarini o'rgangan [13]. I.A. Turok esa sug'urta agentlari bilan hisob-kitoblar va agentlik komission mukofotlarini shartnomalar hamda agentlar kesimida hisobga olish tartibini tadqiq etgan [14].

Uzoq xorij tadqiqotlarida sug'urta kompaniyalari xarajatlarini ularni yuzaga keltiruvchi omillar asosida baholashga alohida e'tibor qaratilgan. D. Segal hayot sug'urtasi kompaniyalarining operatsion xarajatlarini resurslar narxi va sug'urta faoliyatining turli yo'nalishlaridagi natijalar bilan bog'lovchi iqtisodiy funktsiya asosida tahlil qilgan. Ushbu yondashuv xarajat omillaridan yangi sug'urta mahsulotlari narxini belgilash, ichki nazorat va kompaniyalararo taqqoslashda foydalanish imkonini beradi [15].

IFRS 17da sug'urta shartnomalarini tuzish va bajarish bilan bog'liq pul oqimlarini tegishli shartnomalar portfelli va guruhlariga tizimli hamda oqilona asosda taqsimlash nazarda tutiladi [3]. Mazkur yondashuv bevosita va bilvosita xarajatlarni chegaralash, ustama xarajatlarni iqtisodiy asoslangan taqsimlash bazalari orqali tegishli hisob obyektlariga olib borishda muhim metodik asos hisoblanadi. Shu bilan birga, IFRS 17dagi sug'urta shartnomalari bilan bog'liq pul oqimlari tushunchasi milliy hisob tizimidagi 2010 — «Sug'urta ishini yuritish xarajatlari» schyoti mazmuni bilan to'liq bir xil emas.

O'rganilgan tadqiqotlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, mahalliy olimlar tomonidan sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, daromad va xarajatlarni tan olish, moliyaviy natijalarni shakllantirish, ishchi schyotlarni takomillashtirish va auditorlik dalillarining ishonchligini ta'minlash masalalari tadqiq etilgan. MDH olimlarining ishlarida esa sug'urta ishini yuritish xarajatlarni tasniflash, bilvosita xarajatlarni mas'uliyat markazlari bo'yicha taqsimlash, sug'urta biznesi daromadlari va xarajatlarini tahlil qilish hamda agentlik komission xarajatlarni hisobga olish masalalari yoritilgan.

Biroq mavjud tadqiqotlarda 2010-schyot debet aylanmasida aks ettiriladigan summalarni dastlab sug'urta majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq summalar va sug'urta ishini yuritishning tashkiliy-operatsion xarajatlarga



ajratish, keyinchalik esa tashkiliy-operatsion xarajatlarni sug'urta klassi, sug'urta turi yoki mahsuloti, shartnoma, zaruratga ko'ra sug'urta hodisasi, xarajat turi, xarajat markazi va mas'uliyat markazi bo'yicha yagona analitik zanjir asosida detallashtirish masalasi kompleks tarzda yetarlicha tadqiq etilmagan.

Mazkur tadqiqotning avvalgi ishlardan farqli jihat «IMKON-SUG'URTA» AJning amaldagi buxgalteriya ma'lumotlari asosida 2010-schyot debet aylanmasini iqtisodiy mazmuniga ko'ra guruhlash, uning tarkibiy dinamikasini baholash hamda tashkiliy-operatsion xarajatlarni ko'p bosqichli analitik hisobga olish modelini taklif etishdan iborat. Ushbu model sug'urta turlari bo'yicha haqiqiy tannarx, xarajat sig'imi, shartnomalar va filiallar rentabelligi, xarajatlar og'ishi hamda ichki audit nazorat ko'rsatkichlarini shakllantirish imkoniyatini kengaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda «IMKON-SUG'URTA» AJning 2021–2025-yillardagi moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlari hamda 2021 va 2025-yillar bo'yicha 2010 — «Sug'urta ishini yuritish xarajatlari» schyoti aylanma-saldo vedomostlari ma'lumotlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, guruhlash, gorizontaal va vertikal tahlil, koeffitsiyentlar hamda mantiqiy umumlashtirish usullari qo'llanilib, sug'urta xizmatlaridan olingan sof tushum, xizmatlar tannarxi, yalpi natija, xarajat sig'imi va yalpi marja dinamikasi baholandi. Shuningdek, 2010-schyot debet aylanmasidagi summalar iqtisodiy mazmuniga ko'ra sug'urta majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq summalar va tashkiliy-operatsion xarajatlarga ajratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug'urta tashkilotida xarajatlarni boshqarish samaradorligini baholashda sug'urta xizmatlaridan olingan sof tushum, xizmatlar tannarxi va ular o'rtasida shakllangan yalpi moliyaviy natijani o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda «IMKON-SUG'URTA» AJning 2021–2025-yillardagi sof tushumi, sug'urta xizmatlari tannarxi, yalpi natijasi, xarajat sig'imi va yalpi marja ko'rsatkichlari o'rganildi.

«IMKON-SUG'URTA» AJda sug'urta xizmatlaridan olingan sof tushum, xizmatlar tannarxi, yalpi moliyaviy natija, xarajat sig'imi va yalpi marjani 2021–2025-yillardagi o'zgarishi 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval
«IMKON-SUG'URTA» AJda sof tushum va xizmatlar tannarxi dinamikasi, 2021–2025-yillar

Yil	Sug'urta xizmatlaridan sof tushum, mln so'm	Sug'urta xizmatlarining tannarxi, mln so'm	Yalpi foyda (+), zarar (–), mln so'm	Xarajat sig'imi, %	Yalpi marja, %
2021	20 858,1	22 594,1	-1 736,0	108,3	-8,3
2022	37 125,2	45 940,8	-8 815,6	123,7	-23,7
2023	51 054,5	60 188,1	-9 133,6	117,9	-17,9
2024	31 281,7	43 020,2	-11 738,5	137,5	-37,5
2025	51 522,5	53 835,1	-2 312,6	104,5	-4,5

Manba: «IMKON-SUG'URTA» AJning 2021–2025-yillar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «IMKON-SUG'URTA» AJda 2021–2025-yillarda sug'urta xizmatlaridan olingan sof tushum 20 858,1 mln so'mdan 51 522,5 mln so'mgacha, ya'ni 2,5 barobarga oshgan. Biroq shu davrda sug'urta xizmatlari tannarxi 22 594,1 mln so'mdan 53 835,1 mln so'mgacha ko'payib, barcha yillarda sof tushum miqdoridan yuqori shakllangan. Natijada tahlil davrining har bir yilida yalpi zarar qayd etilgan bo'lib, eng yuqori salbiy natija 2024-yilda 11 738,5 mln so'mni tashkil etgan. Ushbu yilda xarajat sig'imi 137,5 foizga, yalpi marja esa -37,5 foizga teng bo'lgani har 100 so'mlik sof tushumga 137,5 so'm tannarx to'g'ri kelganini anglatadi. 2025-yilda sof tushumning xizmatlar tannarxiga nisbatan yuqori sur'atda o'sishi natijasida xarajat sig'imi 104,5 foizgacha pasayib, yalpi zarar 2 312,6 mln so'mgacha qisqargan. Shunga qaramay, xarajat sig'imining 100 foizdan yuqori saqlanib qolishi sug'urta xizmatlari tannarxini shakllantiruvchi xarajatlar tarkibi va ularning hisobda aks ettirilishini chuqurroq tahlil qilish zaruratini ko'rsatadi.

Sug'urta xizmatlari tannarxining sof tushumga nisbatan yuqori shakllangani xarajatlarning umumiy miqdorinigina emas, balki ularning tarkibi va iqtisodiy mazmunini ham chuqur tahlil qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu munosabat bilan «IMKON-SUG'URTA» AJda 2010 — «Sug'urta ishini yuritish xarajatlari» schyoti debet aylanmasining 2021 va 2025-yillardagi tarkibi hamda o'zgarishi 2-jadvalda keltirilgan (2-jadval).



2-jadval

“IMKON-SUG’URTA” AJda 2010 — “Sug’urta ishini yuritish xarajatlari”
schyoti debet aylanmasining iqtisodiy mazmuniga ko’ra tarkibi va dinamikasi

Ko’rsatkichlar	2021-yil, mln so’m	2025-yil, mln so’m	O’zgarishi, mln so’m	O’sish (kamayish), %	2025-yildagi ulushi, %
I. Sug’urta majburiyatlarini bajarish bilan bog’liq summalar					
Sug’urta to’lovlari	7 827,7	19 628,0	11 800,3	150,8	36,5
Foydalanilmagan sug’urta mukofotlari	1 599,9	3 065,1	1 465,2	91,6	5,7
I-bo’lim bo’yicha jami	9 427,6	22 693,2	13 265,6	140,7	42,2
II. Sug’urta ishini yuritishning tashkiliy-operatsion xarajatlari					
Agentlik va boshqa komission xizmatlar	5 600,6	16 131,7	10 531,2	188,0	30,0
Mehnat haqi va ijtimoiy soliq	6 750,1	10 262,3	3 512,2	52,0	19,1
Bank xizmatlari	0,0	2 621,6	2 621,6	–	4,9
Elektron polis, aloqa va axborot-texnik xarajatlar	50,5	1 000,6	950,1	1881,9	1,9
Ijara, amortizatsiya va asosiy vositalarni ta’mirlash	480,9	673,0	192,1	39,9	1,3
Transport xarajatlari	169,1	395,4	226,4	133,9	0,7
Material xarajatlari	97,7	54,2	-43,5	-44,5	0,1
Boshqa xarajatlar	17,6	3,0	-14,6	-82,9	0,0
II-bo’lim bo’yicha jami	13 166,5	31 142,0	17 975,4	136,5	57,8
2010-schyot debet aylanmasi bo’yicha jami	22 594,1	53 835,1	31 241,0	138,3	100,0

Manba: “IMKON-SUG’URTA” AJning 2021 va 2025-yillar bo’yicha 2010 — “Sug’urta ishini yuritish xarajatlari” schyoti aylanma-saldo vedomostlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan guruhlangan va hisoblangan.

Izoh: sug’urta to’lovlari va foydalanilmagan sug’urta mukofotlari 2010-schyot debet aylanmasida aks ettirilgan bo’lsa-da, iqtisodiy mazmuniga ko’ra ular sug’urta ishini yuritishning tashkiliy-operatsion xarajatlardan alohida ko’rsatildi. Bu guruhlash 2010-schyotda iqtisodiy mazmuni turlicha bo’lgan obyektlar bir schyotda jamlanayotganini tahlil qilish imkonini beradi.

2-jadval ma’lumotlari 2010-schyot debet aylanmasidagi xarajatlar tarkibida sezilarli tarkibiy o’zgarishlar yuz berganini ko’rsatadi. 2021–2025-yillarda mazkur schyotning umumiy debet aylanmasi 22 594,1 mln so’m dan 53 835,1 mln so’m gacha, ya’ni 138,3 foizga oshgan. Shu bilan birga, sug’urta majburiyatlarini bajarish bilan bog’liq summalar 140,7 foizga, tashkiliy-operatsion xarajatlar esa 136,5 foizga ko’paygan. 2025-yilda 2010-schyot tarkibining 42,2 foizi sug’urta to’lovlari va foydalanilmagan sug’urta mukofotlariga, 57,8 foizi esa tashkiliy-operatsion xarajatlarga to’g’ri kelgan. Bu holat iqtisodiy mazmuni turlicha bo’lgan obyektlarning bitta sintetik schyotda jamlanayotganini ko’rsatadi.

Tashkiliy-operatsion xarajatlar tarkibida eng yuqori ulush agentlik va boshqa komission xizmatlar hamda mehnat haqi va ijtimoiy soliq hissasiga to’g’ri kelgan. 2025-yilda ushbu ikki guruhning jami ulushi umumiy 2010-schyot aylanmasining 49,1 foizini tashkil etgan. Agentlik va komission xizmatlar xarajatlarning 188,0 foizga o’sishi sug’urta mahsulotlarini sotishda vositachilik kanallarining ahamiyati ortganini ko’rsatsa, mehnat haqi va ijtimoiy soliq xarajatlarning 52,0 foizga ko’payishi tashkiliy jarayonlarni ta’minlash xarajatlarning ham sezilarli darajada oshganini ifodalaydi.

Bank xizmatlari, elektron polis, aloqa va axborot-texnik xarajatlarning keskin o’sishi sug’urta operatsiyalarida bank va axborot infratuzilmasidan foydalanish kengaygan bo’lishi mumkinligini ko’rsatadi. Biroq mavjud hisob ma’lumotlari ushbu o’sishning aniq omillarini to’liq baholash imkonini bermaydi. Mazkur xarajatlarning qaysi sug’urta mahsuloti, shartnoma, filial yoki xizmat jarayoni bilan bog’liqligi umumiy sintetik schyot ma’lumotlari asosida aniqlanmaydi. Shu sababli ularni tegishli analitik kesimlarda hisobga olish talab etiladi.


Material va boshqa xarajatlar miqdorining kamayishi umumiy tannarxga jiddiy ta’sir ko’rsatmagan, chunki ularning 2025-yildagi ulushi juda past bo’lgan. Demak, xarajatlarni boshqarishda asosiy e’tibor agentlik va komission xizmatlar, mehnat haqi, bank hamda axborot-texnik xarajatlarga qaratilishi lozim.

Umuman, 2-jadval natijalari 2010-schyot bo’yicha mavjud analitik hisob xarajatlarning iqtisodiy mazmuni, yuzaga kelish joyi va boshqaruv mas’uliyatini to’liq ochib bermasligini ko’rsatadi. Shu bois sug’urta majburiyatlarini bajarish bilan bog’liq summalarini tashkiliy-operatsion xarajatlardan alohida aks ettirish va



keyingi bosqichda tashkiliy-operatsion xarajatlarni sug'urta klassi, sug'urta turi, shartnoma, xarajat turi, xarajat markazi va mas'uliyat markazi bo'yicha detallashtirish maqsadga muvofiq.

O'tkazilgan tahlil 2010-schyotda iqtisodiy mazmuni turlicha bo'lgan summalar birgalikda jamlanayotganini va tashkiliy-operatsion xarajatlarni mavjud analitik hisob boshqaruv hamda ichki audit ehtiyojlari uchun yetarli darajada detallashtirilmaganini ko'rsatdi. Shu munosabat bilan 2010-schyot ma'lumotlarini iqtisodiy mazmuniga ko'ra ajratish va tashkiliy-operatsion xarajatlarni ko'p bosqichli analitik kesimlarda hisobga olish modeli 1-rasmda taklif etildi (1-rasm).



1-rasm. Sug'urta tashkilotlarida 2010-schyot bo'yicha analitik hisobni takomillashtirish modeli
Manba: muallif ishlanmasi.



1-rasmda taklif etilgan model 2010-schyot ma'lumotlarini dastlab iqtisodiy mazmuniga ko'ra ikki guruhga ajratishni nazarda tutadi. Birinchi guruh sug'urta majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq summalarini, ikkinchi guruh esa sug'urta ishini yuritishning tashkiliy-operatsion xarajatlarini qamrab oladi. Bunday ajratish sug'urta to'lovlari va foydalanilmagan sug'urta mukofotlari kabi majburiyatga oid summalarini agentlik, mehnat, bank, axborot-texnik va boshqa operatsion xarajatlardan iqtisodiy mazmuniga ko'ra farqlash imkonini beradi.

Modelning keyingi bosqichida faqat tashkiliy-operatsion xarajatlarni sug'urta klassi, sug'urta turi yoki mahsuloti, sug'urta shartnomasi, zaruratga ko'ra sug'urta hodisasi, xarajat turi, xarajat markazi va mas'uliyat markazi kesimida detallashtirish taklif etilgan. Ushbu yondashuv xarajatlarning qaysi sug'urta yo'nalishi, shartnoma yoki bo'linmada yuzaga kelganini aniqlash va bilvosita xarajatlarni iqtisodiy asoslangan taqsimlash bazalari orqali tegishli hisob obyektlariga olib borish imkonini beradi.

Natijada sug'urta turlari bo'yicha haqiqiy tannarx, xarajat sig'imi, shartnomalar va filiallar rentabelligi, xarajatlar og'ishi hamda ichki audit uchun nazorat ko'rsatkichlarini shakllantirish imkoniyati kengayadi. Shu jihatdan mazkur model analitik hisob ma'lumotlarini moliyaviy hisobotni shakllantirish vositasidan boshqaruv va nazorat qarorlarini qabul qilishga xizmat qiluvchi axborot tizimiga aylantirishga qaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari «**IMKON-SUG'URTA**» AJda 2021–2025-yillarda sug'urta xizmatlari tannarxi sof tushumdan yuqori shakllanganini va bu holat yalpi zararining yuzaga kelishiga sabab bo'lganini ko'rsatdi. 2025-yilda xarajat sig'imining 104,5 foizgacha pasayishi ijobiy o'zgarish hisoblansa-da, uning 100 foizdan yuqori saqlanib qolishi xarajatlarni boshqarish va sug'urta xizmatlari tannarxini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

2010 — «**Sug'urta ishini yuritish xarajatlari**» schyoti debet aylanmasining tarkibiy tahlilida iqtisodiy mazmuni turlicha bo'lgan sug'urta majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq summalar va tashkiliy-operatsion xarajatlar bir schyotda umumlashtirilayotgani aniqlandi. Shu sababli 2010-schyot ma'lumotlarini dastlab sug'urta majburiyatlariga oid summalar va sug'urta ishini yuritishning tashkiliy-operatsion xarajatlariga ajratish maqsadga muvofiq.

Tashkiliy-operatsion xarajatlarni sug'urta klassi, sug'urta turi yoki mahsuloti, shartnoma, zaruratga ko'ra sug'urta hodisasi, xarajat turi, xarajat markazi va mas'uliyat markazi bo'yicha analitik hisobga olish taklif etildi. Mazkur yondashuv sug'urta xizmatlarining haqiqiy tannarxini aniqlash, xarajatlarning yuzaga kelish sabablarini baholash, alohida sug'urta mahsulotlari va filiallar rentabelligini hisoblash hamda xarajatlar ustidan ichki nazoratni kuchaytirish imkonini beradi.

Shuningdek, agentlik va komission xizmatlar, mehnat haqi, bank hamda axborot-texnik xarajatlar umumiy tannarxda yuqori ulushga ega ekanini inobatga olib, ular bo'yicha alohida analitik subschyotlar va mas'uliyat markazlarini belgilash tavsiya etiladi. Taklif etilgan modelni sug'urta tashkilotining hisob siyosati va ishchi schyotlar rejasida aks ettirish boshqaruv qarorlari hamda ichki audit uchun zarur bo'lgan ishonchli va detallashtirilgan axborot bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi **Sug'urta faoliyati to'g'risida** O'RQ-730-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5739117>.
2. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining «**Sug'urtalovchilar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini tasdiqlash to'g'risida**»gi 2008-yil 5-maydagi 47-son buyrug'i. <https://lex.uz/docs/1357627>.
3. IFRS Foundation. *IFRS 17 Insurance Contracts* [Electronic resource] // *IFRS Accounting Standards*. — URL: <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-17-insurance-contracts/>.
4. Ochilov I.K. **Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil metodologiyasini takomillashtirish**: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dis. avtoref.: 08.00.08. — Toshkent, 2022.
5. Kuvatova D.A. **Sug'urta tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar hisobini takomillashtirish**: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref.: 08.00.08. — Toshkent, 2025.
6. Ergasheva M.Sh. **Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirish**: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dis. avtoref.: 08.00.08. — Toshkent, 2024.
7. Abduraimova M.A. **Sug'urta tashkilotlarida auditorlik tekshiruvlarini tashkil qilishda dalillarning ahamiyati** // *Xalqaro moliya va hisob*. — 2024. — № 1. — 13 b. — ISSN 2181-1016.
8. Полазнова Т.В. Учет доходов и расходов от страховых операций в страховых организациях: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.12. — Нижний Новгород, 2007. — 198 с.



9. Яковлев М.К. Бухгалтерский учет в страховых компаниях: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.12. — Москва, 2009. — 25 с.
10. Шегурова В.П. Особенности учета и анализа доходов и расходов в страховом бизнесе: на примере Саранского филиала ООО «Страховая компания «Согласие» // Молодой ученый. — 2012. — № 12. — С. 229–232.
11. Корзоватых Ж.М. Проблемы бухгалтерского учета в страховых организациях // Вестник университета. — 2015. — № 10. — С. 228–233.
12. Савельева О.В. Особенности бухгалтерского учета в страховых компаниях // Вестник Оренбургского государственного университета. — 2009. — № 9 (103). — С. 89–94.
13. Усманиева Г.Б. Классификация и состав доходов и расходов страховой организации // Известия Иссык-Кульского форума бухгалтеров и аудиторов стран Центральной Азии. — 2014. — № 3. — С. 107–111.
14. Турок И.А. Особенности учета расчетов страховой организации со страховыми агентами // Всё для бухгалтера. — 2011. — № 6. — С. 20–25.
15. Segal D. *An Economic Analysis of Life Insurance Company Expenses* // *North American Actuarial Journal*. — 2002. — Vol. 6, No. 4. — P. 81–94. — DOI: 10.1080/10920277.2002.10596066.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>